e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)

Article / Original paper https://doi.org/10.67227/7mp73031

TURKIYA TARIXSHUNOSLIGIDA CHIG‘ATOY ULUSI DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA ILM-FAN VA TA’LIM TIZIMI

Samandarov Qalandar Daniyor o‘g‘li
Toshkent amaliy fanlar universiteti, katta o‘qituvchi.
e-mail: samandarovq755@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0005-4763-0477

Annotatsiya.

Maqolada XXI asrda olib borilgan tadqiqotlar asosida Chig‘atoy ulusi (1227–1345) davrida Movarounnahrda ilm-fan va ta’lim tizimining holati tahlil qilinadi. Tadqiqot tarixshunoslik tahlili, qiyosiy-tarixiy usul, tahlil va manbashunoslik tanqidi metodlariga asoslanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, turkiyalik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida Chig‘atoy ulusi hukmdorlari ilm-fanning homiylari sifatida namoyon bo‘lmagani qayd etiladi. Ilmiy-ma’rifiy hayot shahar jamoalari, vaqf mulklari, madrasa va xonaqohlar, oilaviy ilmiy an’analar (Sadr ash-Sharia va Mahbubiylar avlodlari) hamda mahalliy musulmon amaldorlar (Yalavochlar oilasi avlodlari) faoliyati orqali saqlanib qolgan. Islomlashuv jarayoni ulusning dastlabki davrlarida sust va notekis kechib, asosan quyidan yuqoriga yo‘nalgan. Madrasalardagi ta’lim tizimi va o‘qitish jarayonining holati yetarlicha o‘rganilmagan masala sifatida qolmoqda. Shuningdek, dunyoviy fanlarning rivojlanishiga oid maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Chig‘atoy ulusi, Kafali, Tosun, Tahtali, Chinar, Orta, Karadovut, Eryilmaz, Movarounnahr, madrasa, tasavvuf, islomlashuv, Yalavochlar.

НАУКА И СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В МАВЕРАННАХРЕ В ПЕРИОД ЧАГАТАЙСКОГО УЛУСА В ТУРЕЦКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

Самандаров Каландар Даниёр угли
Ташкентский университет прикладных наук, старший преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируется состояние науки и системы образования в Мавераннахре в период Чагатайского улуса (1227–1345) на основе исследований, проведённых в XXI веке. Исследование опирается на историографический анализ, сравнительно-исторический метод, аналитический подход и критический анализ исторических источников. Результаты анализа показывают, что, согласно научным исследованиям турецких историков, правители Чагатайского улуса не выступали покровителями науки. Научная и просветительская жизнь сохранялась благодаря деятельности городских общин, вакфных учреждений, медресе и ханак, семейным научным традициям (потомки Садр аш-Шариа и Махбуби), а также местным мусульманским чиновникам (представители рода Ялавачей). Процесс исламизации на ранних этапах существования улуса протекал медленно и неравномерно, преимущественно по направлению снизу вверх. Вопросы организации образовательной системы и состояния преподавания в медресе остаются недостаточно изученными. Кроме того, отмечается отсутствие специальных исследований, посвящённых развитию светских наук в рассматриваемый период.

Ключевые слова: Чагатайский улус, Кафали, Тосун, Тахталы, Чинар, Орта, Карадовут, Эрйылмаз, Мавераннахр, медресе, суфизм, исламизация, Ялавачи.

SCIENCE AND THE EDUCATION SYSTEM IN TRANSOXIANA DURING THE CHAGATAI ULUS IN TURKISH HISTORIOGRAPHY

Samandarov Qalandar Daniyor o‘g‘li
Tashkent University of Applied Sciences, Senior Lecturer.

Abstract.

This article examines the state of science and the education system in Transoxiana during the Chagatai Ulus (1227–1345), based on studies conducted in the 21st century. The research employs historiographical analysis, the comparative-historical method, analytical approaches, and critical examination of historical sources. The findings indicate that, according to Turkish scholars, the rulers of the Chagatai Ulus did not act as patrons of science. Scholarly and educational activities were preserved through urban communities, waqf institutions, madrasas and khanqahs, family scholarly traditions (the descendants of Sadr al-Sharia and the Mahbubi family), and local Muslim officials

ISSN 3060-5059 (Online)

(descendants of the Yalavach family). During the early period of the ulus, Islamization proceeded slowly and unevenly, primarily as a bottom-up process. Questions concerning the organization of education and teaching practices in madrasas remain insufficiently explored. Furthermore, the article highlights the absence of specialized studies on the development of secular sciences during this period.

Keywords: Chagatai Ulus, Kafali, Tosun, Tahtali, Chinar, Orta, Karadovut, Eryilmaz, Transoxiana, madrasa, Sufism, Islamization, Yalavach family.

Kirish. Chingizxon vorislari o‘rtasida bo‘lingan davlatlar ichida Chig‘atoy ulusi tarixi yozma manbalarda nisbatan kam yoritilgan hisoblanadi. Mahalliy yozma manbalarda mavzu doirasida yetarlicha ma’lumotlar keltirilmaganligi sababli ulus tarixini qo‘shni uluslar (Ilxoniylar, Oltin O‘rda) hududlarida yozilgan manbalar asosida tiklashga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ulusdagi ilm-fan, din va ta’lim masalalari turli tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi [8, b. 220–227].

Turkiyalik tarixchi olimlardan M. Kafalining ilmiy ishi (2005) Chig‘atoy ulusi tarixiga bag‘ishlangan yirik monografiya bo‘lib, unda Chingizxon «Yaso»si saroyni shahar madaniyatidan uzoqlashtirganligi, ilmiy hayot deyarli mavjud bo‘lmaganligi ta’kidlanadi hamda «Chig‘atoy adabiyoti» atamasi tanqid qilinadi [2]. N. Tosun (2012) Markaziy Osiyo tasavvufini, ya’ni Yassaviya, Kubraviya va Xojagon tariqatlarini ko‘rib chiqib, ularning ijtimoiy-ma’naviy rolini ochib beradi [6]. B. S. Tahtali (2018) mo‘g‘ullar boshqaruvidagi musulmon va turk amaldorlarining faoliyatini o‘rganadi [5, b. 1058–1066]. O. Chinar (2019) doktorlik dissertatsiyasida ulusning siyosiy, harbiy va ijtimoiy holatini yoritadi [7]. F. Orta (2019) Tarmashirin davrini islomlashuv omillari nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi [4]. I. Karadovut (2019) Buxoroda yashagan hanafiy olim Sadr ash-Sharia Ubaydulloh ibn Mas’udning ilmiy faoliyatini o‘rganadi [3]. I. Eryilmaz (2021) mo‘g‘ullar orasida islom dinining tarqalishini xonlar hukmronligi davrlari bo‘yicha bayon qiladi [1].

M. Kafaliga ko‘ra, mo‘g‘ullar istilosidan oldingi uch asr davomida Movarounnahrda turk-islom madaniyati va ilm-ma’rifat rivoji o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan edi, ammo bosqin natijasida shaharlar vayron qilingan. Ulus hukmdorlari esa «Yaso»ga (Chingizxon davrida ishlab chiqilgan mo‘g‘ullar qonunlari to‘plami) qat’iy rioya qilib, shahar madaniyatidan uzoq bo‘lgan va ko‘chma o‘tovlardan iborat manzilgohlarda, keng yaylovlarda yashagan [2]. B. S. Tahtali esa mo‘g‘ullar ma’muriy ishlarni past baholaganini, fuqarolik boshqaruvi uyg‘ur, turk va xitoy amaldorlariga topshirilganini yozadi [5, b. 1058–1066]. O. Chinar ulus xoni faqat yig‘ilgan soliqlardan foydalana olganini, soliq solish va yig‘ish huquqiga ega bo‘lmaganini, ulamolar va din olimlari asosan O‘gedeyga bo‘ysunganini qayd etadi [7]. I. Eryilmaz Chig‘atoyning «Yaso»ni qat’iy tatbiq etishi musulmonlarni og‘ir ahvolga solganini, xususan, oqar suvda tahorat olish va shariatga muvofiq qurbonlik qilish taqiqlanganini bayon qiladi [1].

Matnda keltirilgan asosiy tarixiy sanalar ketma-ketligi Diagramma 1 da aks ettirilgan.




Diagramma 1. Chig‘atoy ulusidagi asosiy tarixiy sanalar (matn asosida)


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishidagi masalalar analiz, qiyosiy tahlil, manbashunoslik tanqidi, tarixshunoslik tahlili, xronologik usullar kabi metodlar asosida tahlil qilindi. Tamoyillar: o‘rganilayotgan mavzu xolislik, ilmiylik, aniqlik, tanqidiy yondashuv kabi tamoyillar asosida yoritildi.

Manbalarga murojaat chastotasi Grafik 1 da ko‘rsatilgan. Eng ko‘p murojaat M. Kafalining monografiyasiga (12

ISSN 3060-5059 (Online)

marta) qilingan.



Grafik 1. Maqolada manbalarga murojaatlar soni (ushbu maqolada tahlil qilingan tadqiqotlar asosida)

NATIJALAR

M. Kafalining ilmiy ishida Chig‘atoy ulusi davridagi ilm-fan sohasi haqida maxsus ma’lumotlar keltirilmagan [2]. Muallif Jamol Qarshiy, Juvayniy va Vassof asarlariga tayanib, Buxoroda Mas’ud Yalavoch tomonidan madrasa qurdirilganligini yozadi. Kafali bu ma’lumotni Mas’ud Yalavoch faoliyatini ijobiy jihatdan yoritish maqsadida keltirgan ko‘rinadi. Kafali asosiy e’tiborni Yalavochlar oilasi, jumladan, Mas’ud Yalavoch shaxsiyati va faoliyatini yoritishga qaratib, unga ko‘proq ijobiy baho berishga intiladi. Xususan, Mas’ud Yalavoch tomonidan Qashqar shahrida «Mas’udiya» nomli ikkinchi madrasa ham qurdirilganligini ta’kidlashi fikrimizga asos bo‘lib xizmat qiladi. Madrasalar va boshqa shu kabi inshootlarning qurilishi Mas’udning aholi orasida obro‘-e’tibor va hurmat qozonishiga sabab bo‘lganini bayon qilishi ham Kafalining asosiy e’tiborni Mas’ud faoliyatini yoritishga qaratganligini ko‘rsatadi [2].

Tadqiqotdagi asosiy masalalardan biri Chig‘atoy ulusi davrida shaharlar boshqaruvi bo‘lib, unda Yalavochlar oilasining shaharlar boshqaruvidagi roli ochib beriladi. Mas’ud Yalavochning Buxoro va Qashqarda qurdirgan madrasalaridan tashqari, boshqa shaharlarda madrasalar qurilishi, ulardagi ta’lim jarayoni, talabalar, mudarrislar va o‘qitiladigan fanlar haqida ma’lumot berilmagan. Umuman olganda, Kafalining tadqiqotida madrasalar, ulardagi ta’lim tizimi va ilm-fan sohasiga alohida e’tibor qaratilmagan hamda ularning madaniy hayotdagi o‘rni haqida to‘xtalib o‘tilmagan [2].

N. Tosunning ilmiy ishida asosiy e’tibor O‘rta Osiyoda tasavvufning paydo bo‘lishi, tarqalishi va diniy hayotdagi o‘rnini yoritishga qaratilgan [6]. Unda Yassaviylik, Kubroviylik va Naqshbandiylik tariqatlarining asoschilari hamda bu tariqatlarning keyingi davomchilari orqali turli hududlarga tarqalishi atroflicha tadqiq qilingan. Chig‘atoy ulusidagi ilm-fan sohasiga oid ayrim ma’lumotlar ham tadqiqotda o‘z aksini topgan. Xususan, so‘fiylar va shayxlar turkiy, arab va fors tillarida asarlar yozib, sharqiy turkiy yozma tilning rivojiga hissa qo‘shganligi ta’kidlanadi. Shular qatorida Yahyo Boxarziy (v. 1335)ning «Avrodu-l-ahbob va fusulu-l-adab», Azizuddin Nasafiy (v. 1300)ning fors tilidagi asarlari, Xovand Tohur (v. 1354) risolalarining nomlari sanab o‘tiladi. Bu kabi asarlar til va adabiyot sohasida diniy hayotni yorituvchi muhim manbalar hisoblanadi hamda o‘z davrining yozma adabiy yodgorliklari sifatida muhim o‘rin tutadi [6].

Nejdat Tosunning ishida Buxoroda Kubroviylik tariqatining shayxi, Najmiddin Kubroning shogirdi bo‘lgan Sayfuddin Boxarziy madrasa va xonaqoh qurdirib, faoliyat yuritganligi ham bayon qilingan. Biroq madrasadagi ta’lim tizimi va unda o‘qitiladigan fanlar xususida ma’lumotlar keltirilmagan. Umuman olganda, mazkur ilmiy tadqiqotda tasavvuf, so‘fiylik, so‘fiylar va shayxlar faoliyati alohida yoritilgan. Biroq tasavvufning ilm-fan sohasidagi o‘rni, shayxlarning ilmiy faoliyati va ularning ta’lim jarayonidagi ishtiroki haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinmagan [6].

B. S. Tahtalining tadqiqotida Chig‘atoy ulusidagi musulmon amaldorlar faoliyati tahlil qilingan [5, b. 1058–1066]. Jumladan, Habash Amidning vazirlik davri haqida to‘xtalib o‘tilgan. Bolaligida yetim qolib, Habash Amid tomonidan asrab olingan, keyinchalik davlatda bir muddat vazirlik qilgan Bahouddin Marg‘inoniy tarixi bilan bir qatorda, Yalavochlar oilasi vakillarining faoliyati ham tahlilga tortilgan. Biroq bu shaxslar faoliyatining ilm-fan yoki ta’lim tizimi bilan bog‘liq jihatlari yoritilmagan. Muallif faqat Mas’ud Yalavoch tomonidan Buxoro va Qashqarda madrasalar qurdirilganligi haqidagi ma’lumotni keltirish bilan cheklangan. Shunga ko‘ra, Tahtalining tadqiqotida ham ilm-fan va ta’lim tizimi bilan bog‘liq tarixiy voqealar maxsus o‘rganilmagan. Xulosa qismida Chig‘atoy ulusidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va o‘zgarishlar natijasida bugungi kunda Chig‘atoy turkiy tili deb ataladigan til meros sifatida saqlanib qolganligi ta’kidlanadi [5, b. 1065].

Orhan Chinarning «Chig‘atoy davlati davrida Turkistonning siyosiy, harbiy va ijtimoiy holati» deb nomlangan ilmiy tadqiqotida Chig‘atoy ulusi davridagi siyosiy va ijtimoiy holat nisbatan kengroq tavsiflangan [7]. Ayniqsa, tadqiqotchi XIII–XIV asrlarda yozilgan Juvayniy, Rashididdin, Vassof va Juzjoniy asarlaridan, shuningdek, keyingi davr manbalari —

ISSN 3060-5059 (Online)

Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», Abulg‘oziy Bahodirxonning «Shajarayi turk» kabi asarlaridan izchil foydalangan. O‘sha davrda yashagan allomalardan Yusuf Sakkokiyning «Miftoh al-ulum» asarini yozganligini ham qayd etadi. Tadqiqotda asosiy e’tibor davrning siyosiy vaziyati, harbiy holati va xonlar faoliyatiga qaratilgan. 1272-yilda Chingiziylar xonadoni vakillarining o‘zaro urushlari natijasida Buxoro hududi vayron etilganligi, buning oqibatida hududdagi ko‘plab inshootlar buzilganligi keltiriladi. Shu inshootlar qatorida Mas’ud Yalavoch tomonidan qurdirilgan Mas’udiya madrasasi ham vayron qilinganligi ta’kidlanadi. Shunday bo‘lsa-da, Orhan Chinarning ilmiy tadqiqotida asosan Chig‘atoy ulusidagi siyosiy, ijtimoiy va harbiy vaziyat tahlil etilgan. Ijtimoiy hayot voqealarini yoritish jarayonida madaniy holat, ta’lim tizimi va ilm-fan sohasi masalalari alohida tadqiq etilmagan [7].

Fatih Orta Chig‘atoy ulusi davridagi diniy hayot masalasiga nisbatan kengroq to‘xtalgan [4]. Uning «Chig‘atoy xonligida an’ana va o‘zgarish: Tarmashirinxon davri» nomli magistrlik ishida Tarmashirinxon davridagi diniy hayot va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ko‘rib chiqilgan. Unda davriy jihatdan faqat Tarmashirinxon hukmronligi (1328–1334) davridagi diniy vaziyat, islom, tasavvuf, so‘fiylik holati hamda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar tadqiq qilingan. Asosiy e’tibor islom dinining tarqalishi, so‘fiylik va so‘fiylar faoliyati, tasavvuf shayxlarining davlat siyosiy tizimiga ta’siriga qaratilgan. Muallif tarixiy manbalardan, asosan, Ibn Battutaning asariga tayanib, Movarounnahrda madrasalar ko‘p bo‘lganligini qayd etadi. Islom dini shaharga xos din sifatida ta’riflanib, shaharlarda, xususan, Buxoroda madrasalar va masjidlar qurilganligi sababli islomlashuv jarayoni shahar aholisi orasida kuchliroq kechganligi ta’kidlanadi. Mazkur tadqiqot ishida Ibn Battutaning asaridan tashqari boshqa tarixiy manbalardan yetarlicha foydalanilmagan. Biroq P. Jekson, D. Devis, T. May, M. Biran va T. Allsen kabi yirik mo‘g‘ulshunos olimlarning tadqiqotlari tarixshunoslik tahlili doirasida qiyosiy o‘rganilgani e’tiborga loyiq. Umuman olganda, Fatih Ortaning ishida ham shayxlar va madrasalar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa-da, ulardagi ilm-fan va ta’lim muhiti to‘g‘risida fikr bildirilmagan [4].

Ismoil Karadovutning magistrlik ishi islom dini tarixida Hanafiylik mazhabining hududdagi ijtimoiy va diniy hayotdagi o‘rnini yoritishga bag‘ishlangan [3]. Tadqiqotda Sadr ash-Sharia nomi bilan tanilgan buxorolik Ubaydulloh ibn Mas’ud faoliyati va uning fiqh sohasidagi roli tahlil qilinadi. U Buxoroda yashagan, Hanafiy mazhabiga mansub olim bo‘lgan. Ubaydulloh ibn Mas’ud fiqh, usul, kalom, hadis va tafsir kabi diniy ilmlar bilan bir qatorda, falsafa, balog‘at va astronomiya fanlari bo‘yicha ham keng bilimga ega olim sifatida tavsiflanadi. Bu esa uning ham naqliy, ham aqliy ilmlardan xabardor bo‘lganligini ko‘rsatadi [3].

Kalom, fiqh, usul, mantiq va falsafa kabi sohalarda o‘z zamonasining eng muhim shaxslaridan biri bo‘lgan Sadr ash-Sharia naqliy va aqliy ilmlar rivojida muhim o‘rin tutgan. Ubaydulloh ibn Mas’ud mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng vayronaga aylangan Buxoroning qaytadan ilm markaziga aylanishiga va Hanafiy mazhabining bugungi kungacha saqlanib qolishiga ta’sir ko‘rsatgan. Sadr ash-Sharianing islomiy ilmlarning ko‘plab tarmoqlarida yozgan asarlari shogirdlari orqali islom olamiga tarqalgan va Usmonli madrasalarida ham o‘qitilgan. Ubaydulloh ibn Mas’ud Buxoriyning fiqh ilmiga doir «At-Tavzih» («At-Tanqih») asari Hanafiy mazhabidagi muhim asarlardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Bu davrda mo‘g‘ullar istilosi natijasida ilm-fan sohasi, xususan, islomiy ilmlar rivoji to‘xtab qolgani, ana shunday vaziyatda Ubaydulloh ibn Mas’ud ushbu ilmlarni saqlab qolib, ularning keyingi rivojlanishiga hissa qo‘shganligi keng yoritiladi [3].

Chig‘atoy ulusida davlatlararo munosabatlar natijasida turli madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishib, ko‘plab fikriy oqimlar, e’tiqod va tafakkur shakllari yuzaga kelganligi bayon qilinadi. Islom jamiyatlari ham shu va shunga o‘xshash omillar ta’sirida qolib, bu jarayon ilmiy taraqqiyot va madaniy hayotda salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganligi ta’kidlanadi. Shunday sharoitda Buxorodagi Sadr ash-Sharialar oilasi vakillari, jumladan, Ubaydulloh ibn Mas’udning faoliyati natijasida Buxoroda fiqh sohasi qaytadan jonlana boshlaganligi alohida e’tirof etiladi. Oila vakillarining Kirmon, Samarqand va Buxorodagi, XV–XVI asrlarda esa Usmonlilar davlatidagi madrasalarda dars berganliklari, fiqh va shariat sohasiga doir bir qancha muhim asarlar yozib, ushbu ilmlarga oid yozma merosni keyingi avlodlarga yetkazganliklari hamda shogirdlari orqali sohaning davom etishiga katta ta’sir ko‘rsatganliklari tahlil qilinadi. Shunday qilib, Ismoil Karadovutning tadqiqotida mikrotarix yo‘nalishida davrning diniy hayoti, ya’ni islomiy ilmlar sohasidagi o‘zgarishlar va ularning ushbu ilmlar rivojidagi o‘rni tadqiq qilingan. Aniq, tabiiy va boshqa dunyoviy fanlarga oid ma’lumotlar tahlilga tortilmagan. Ta’lim tizimida asosan islomiy ilmlarning holatiga to‘xtalib o‘tilgan, biroq ta’lim tizimi maxsus tadqiqot mavzusi sifatida yoritilmagan. Shuning uchun mazkur ilmiy izlanishda ham ilm-fan va ta’lim tizimi tarixi tizimli va asosli ravishda o‘rganilmagan [3].

Iso Eryilmazning tadqiqoti «Chig‘atoy ulusi davrida mo‘g‘ullar orasida islom» deb nomlangan bo‘lib, unda asosiy masala sifatida islom dinining mo‘g‘ullar orasida tarqalishi va xonlarning islom diniga munosabati o‘rganilgan [1]. Mazkur tadqiqotda islom dinining holati siyosiy voqealar kontekstida tahlil qilingan. Iso Eryilmazning tadqiqoti Orhan Chinarning tadqiqotiga o‘xshash bo‘lib, unda Chig‘atoy ulusida Chig‘atoyxondan boshlab keyingi har bir xonning davlat boshqaruvida islomga munosabati, islomni qabul qilishi va xonlar davrida islomning tarqalishi siyosiy jihatdan yoritilgan [1; 7].

Tadqiqot ishida ko‘plab tarixiy manbalar bilan bir qatorda, Chig‘atoy ulusi tarixiga oid sovet davri tadqiqotlaridan ham unumli foydalanilgan. Jumladan, V. V. Bartold, Z. V. To‘g‘on va L. N. Gumilyov kabi olimlarning ilmiy ishlarini misol sifatida keltirish mumkin. Biroq mazkur tadqiqotda ham Chig‘atoy ulusi davridagi ilm-fan va ta’lim tizimi mavzusi maxsus tadqiq qilinmagan [1].

Tadqiqotchilar va ularning asarlarida madrasa hamda ta’lim masalalari qay darajada yoritilgani 1-jadvalda, matnda tilga olingan ta’lim muassasalari esa 2-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Tadqiqotchilar va ularning asarlarida madrasalarda ta’lim masalasining yoritilishi

Tadqiqotchi	Yil	Asar turi	Madrasa haqida ma'lumot	Fanlar va ta'lim haqida ma'lumot
M. Kafali	2005	Monografiya	Qisman	Yo'q
N. Tosun	2012	Kitob	Ha	Yo'q
B.S. Tahtali	2018	Konferensiya maqolasi	Qisman	Yo'q
O. Çınar	2019	Doktorlik dissertatsiyasi	Ha	Yo'q
F. Orta	2019	Magistrlik ishi	Ha	Yo'q
I. Karadavut	2019	Magistrlik ishi	Qisman	Qisman
I. Eryılmaz	2021	Maqola	Yo'q	Yo'q

Izoh: jadval tadqiqotchilarning tahlil qilingan ilmiy ishlarining xulosalari asosida tuzilgan. "Ha" – madrasa yoki fanlar haqida mazmunli ma'lumot berilgan; "Qisman" – faqat qisqa eslatma; "Yo'q" – tilga olinmagan.

2-jadval. Tadqiqotlarda tilga olingan ta'lim muassasalari

Muassasa	Joylashuvi	Bog'liq shaxs	Talabalar soni (manbada)	Holati (manbada)
Mas'udiya madrasasi	Buxoro	Mas'ud Yalavoch	"ming nafar" (Kafali)	1272-yilda vayron etilgan, keyin qayta tiklangan (Kafali)
Mas'udiya madrasasi (ikkinchisi)	Qashqar	Mas'ud Yalavoch	–	Qurdirilgani qayd etilgan
Xoniya madrasasi	Buxoro	Mudarris: Sayfiddin Boxarziy	Mas'udiya bilan birga ming nafarga yaqin (Çınar)	Qayta ta'mirlangan (Çınar)
Madrasa va xonaqoh	Buxoro	Sayfuddin Boxarziy	–	Qurdirgan (Tosun)

Izoh: «–» belgisi manbada ma'lumot ko'rsatilmaganini bildiradi.

MUHOKAMA

Tadqiqotlarning qiyosiy tahlili mavzu doirasida bir nechta muhim tarixiy masalani aniqlash va muhokama qilish imkonini beradi.

Birinchidan, ilm-fan va ta'limning rivojlanishi shahar hayotining barqarorligiga bevosita bog'liq bo'lgan. Buxoroning 1272-yilda vayron qilinishi va Mas'udiya madrasasining ham zarar ko'rishi bunga dalildir. M. Kafali ma'lumotlari bu jarayonni siyosiy-harbiy beqarorlik bilan bog'laydi [2]. O. Chinar esa keyingi qayta qurilish va madrasalarning tiklanish jarayonini ko'rsatadi [7].

Ikkinchidan, diniy hayot va ta'lim tizimi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan. Xoniya madrasasining mudarrisi sifatida Sayfiddin Boxarziyning tilga olinishi madrasa muhitining diniy-ilmiy xususiyatini ko'rsatadi [6; 7].

Uchinchidan, XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida diniy-siyosiy o'zgarishlar kuchaygan. Muborakshoh, Baroqxon va ayniqsa, Tarmashirinxon davrida islomning hukmdorlar orasidagi mavqei tobora mustahkamlangan. O. Chinar Tarmashirin davrida islomiy an'analarning kuchayishini «Yaso» tarafdorlari bilan yuzaga kelgan siyosiy ziddiyatlarga bog'laydi [7]. Boshqa tadqiqotchilar, xususan, M. Kafali esa bu jarayonni islomiy davlatlar bilan aloqalar va savdoning jonlanishi bilan izohlaydi [2].

Shunday qilib, Chig'atoy ulusi davrida Movarounnahrning ilmiy-ma'rifiy tarixini faqat «ilm-fan tanazzuli davri» sifatida baholash manbalardagi barcha ma'lumotlarga mos kelmaydi. Kafali va boshqa tadqiqotchilarning umumiy tanazzul haqidagi xulosalari bilan bir qatorda, Buxoro va Samarqanddagi yirik madrasalar faoliyati hamda ularning qayta tiklanganini ham hisobga olish kerak [2; 7].

Shu bilan birga, buning aksi, ya'ni Chig'atoy davrini to'liq ilmiy-ma'rifiy yuksalish davri sifatida tasvirlash ham o'rganilgan manbalardagi ma'lumotlarga to'liq mos kelmaydi. Chunki aksariyat yozma manbalarda XIII asrning dastlabki davrlarida shaharlar va ilmiy muhit jiddiy zarar ko'rganligi qayd etilgan.

Chig'atoy ulusi hukmdorlari «Yaso»ga rioya qilgan va ilm-fan hamda ta'limning homiysi bo'lmagan [2]. Istilo va ichki kurashlar shahar madaniyatini zaiflashtirgan. Ilm-fan va ta'lim mahalliy musulmon amaldorlar (Yalavochlar), vaqflarga tayangan madrasa va xonaqohlar hamda oilaviy ilmiy an'analar orqali saqlanib qolgan [3; 5; 6]. Bunda Buxoro asosiy markaz bo'lgan, XIV asrda esa Qashqar ham ahamiyat kasb etgan. Islomlashuv jarayoni xonlar orasida Muborakshohdan boshlanib, Tarmashirin davrida kuchaygan. Bu jarayonda tasavvuf, amaldorlar faoliyati, siyosat va savdo omillari o'zaro bog'liq bo'lgan, islomning ommaviy qabul qilinishi esa sekin va notekis kechgan [1; 4].

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ularda Chig'atoy ulusi davlatining tarixi asosiy tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilingani e'tiborga molik [8, b. 220–227]. Biroq Chig'atoy ulusidagi ta'lim tizimi va ilm-fan sohasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

M. Kafali ilmiy hayot «deyarli bo'lmagan»ligini ta'kidlaydi [2]. I. Karadovut, N. Tosun va F. Orta esa ilm-fan saroydan tashqarida — oila, vaqf, xonaqoh va madrasalarda davom etganini ko'rsatadilar [3; 4; 6]. Har ikkala qarash bir-birini to'ldiradi: birinchisi ilm-fan sohasini xon homiyligi, ikkinchisi esa jamoaviy institutlar faoliyati asosida baholaydi.

B. S. Tahtali va O. Chinar amaldorlar faoliyatini [5; 7], N. Tosun va F. Orta esa so'fiylar va shayxlar faoliyatini birinchi o'ringa qo'yadilar [4; 6]. I. Eryilmaz islom dinining mo'g'ullar tomonidan qabul qilinishini «hukmdorga ergashib ommaviy qabul qilish» sifatida talqin etsa [1], F. Orta bu jarayon «quyidan yuqoriga», ya'ni mahalliy aholi vakillari orasidan chiqqan

ISSN 3060-5059 (Online)

shayxlar va so‘fiylar ta’siri natijasida sodir bo‘lganligini ta’kidlaydi [4].

XULOSA

XIII–XIV asrlarda Chig‘atoy ulusi tarkibidagi Movarounnahrning ilm-fani, diniy hayoti va ta’lim tizimi bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Chig‘atoy ulusi tashkil topgan dastlabki davrda mo‘g‘ullar istilosi Movarounnahrning shahar madaniyati, ilmiy hayoti va ta’lim muassasalariga jiddiy zarar yetkazgan. M. Kafali bu jarayonni ilmiy va madaniy hayotning keskin pasayishi bilan izohlaydi [2].

Ikkinchidan, mazkur vayronagarchilik ta’lim tizimining butunlay yo‘qolishiga olib kelmagan. Buxoroda Mas’udiya madrasasi faoliyat yuritgan va Kafali ma’lumotiga ko‘ra, unda ming nafar talaba tahsil olgan. Madrasa 1272-yildagi vayronagarchilikdan keyin qayta tiklangan [2].

Uchinchidan, O. Chinarning tadqiqotida Buxorodagi ta’lim muhiti nisbatan kengroq yoritilgan. Unda Mas’udiya madrasasi bilan bir qatorda, Xoniya madrasasi ham qayta ta’mirlangani, uning mudarrisi Sayfuddin Boxarziy bo‘lgani qayd etilgan. Tadqiqotda har ikki madrasa bilan bog‘liq holda ming nafarga yaqin talaba haqida ma’lumot beriladi [7]. Bu dalil XIII asr oxirida Buxoroda ta’lim muassasalari sezilarli darajada faoliyat yuritganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqotlarning qiyosiy tahlili XIII–XIV asrlarda Movarounnahrdagi ilm-fan, ta’lim va diniy hayot vayronagarchilik va tiklanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini ko‘rsatadi. XIII asr boshlaridagi istilo ilmiy-madaniy hayotga katta zarba bergan bo‘lsa, XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida Buxoro, Samarqand va Qashqar kabi markazlarda madrasalarning qayta tiklanishi ta’lim faoliyatining davom etganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Chig‘atoy hukmdorlarining islomni qabul qilishi diniy hayotning davlatdagi siyosiy jarayonlar bilan yanada yaqinlashuviga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eryılmaz İ. Çağatay Hanlığı Döneminde Moğollar Arasında İslamiyet // Uluslararası Tarih Araştırmaları Dergisi (UTAD). – 2021. – Cilt 5, Sayı 1. – S. 1–24. – URL: https://dergipark.org.tr/tr/pub/utad/article/950643.

2. Kafalı M. Çağatay Hanlığı (1227–1345). – Ankara: Berikan Yayınevi, 2005. – 290 s. – URL: https://turkistanilibrary.com/tr/content/cagatay-hanligi-1227-1345.

3. Karadavut İ. Sadrüşşeria Ubeydullah b. Mes’ud’un Akıl Anlayışı: Yüksek Lisans Tezi. – Yozgat: Yozgat Bozok Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2019. – 115 s. – URL: https://avesis.bozok.edu.tr/yonetilen-tez/03cd8ea7-3b84-4e82-9ce6-48a930b1ef82/sadrusseria-ubeydullah-b-mesudun-akil-anlayisi.

4. Orta F. Çağatay Hanlığı’nda Gelenek ve Değişim: Tarmaşirin Han Dönemi: Yüksek Lisans Tezi. – Aydın: Aydın Adnan Menderes Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2019. – 128 s. – URL: https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/4571099.

5. Tahtalı B. S. Çağatay Hanlığı’nda Müslüman ve Türk Devlet Adamları // I. Uluslararası İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Kongresi Bildiriler Kitabı (23–25 Kasım 2018). – İstanbul, 2018. – S. 1058–1066. – URL: https://indexive.com/uploads/papers/pap_indexive15944031022147483647.pdf.

6. Tosun N. Orta Asya’da Tasavvuf. – Ankara: Türkistan Araştırmaları, 2012. – URL: https://isamveri.org/pdfdrg/D226857/2012/2012_TOSUNN.pdf.

7. Çınar O. Çağatay Devleti Zamanında Türkistan’ın Siyasî, Askerî ve Sosyal Durumu: Doktora Tezi. – İstanbul: Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2019. – 324 s. – URL: https://acikerisim.msgsu.edu.tr/xmlui/bitstream/handle/20.500.14124/2811/550824.pdf?sequence=1&isAllowed=y.

8. Ulashova S. U. Chig‘atoy ulusi tarixining Turkiyada o‘rganilishi // Sohibqiron yulduzi. – 2024. – № 3 (56). – B. 220–227. – URL: https://www.academia.edu/126298486/Chig_atoy_ulusi_tarixining_Turkiyada_o_rganilishi.